QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI



# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH ISHLARI

2024-YIL YANVAR-MAY OYLARI

## Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi

**2024-yilning yanvar-may oylarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami 2 264,2 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 105,2 % ni tashkil etdi.**

| Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik korxona va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
|---|---|---|
| 11,7 % | 73,0 % | 15,3 % |
| ***265,6*** mlrd. so‘m | ***1 652,4*** mlrd. so‘m | ***346,2*** mlrd. so‘m |
| 2024-yilning yanvar-may oylariga nisbatan ***206,7 %*** | 2024-yilning yanvar-may oylariga nisbatan ***101,2 %*** | 2024-yilning yanvar-may oylariga nisbatan ***88,6 %*** |

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

2024-yilning yanvar-may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 265,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 206,7 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 5,7 % punktga ko‘payib, 11,7 % ni tashkil etdi.

# Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2024-yil yanvar-may oylarida

## qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘m




*Ma’lumot uchun:*

Respublika boyicha eng yuqori qurilish hajmini kórsatgan Nukus shahri 708,7 mlrd. so‘m, o‘sish sur’ati 106,4 %, To‘rtko‘l tumani 274,3 mlrd. so‘m va o‘sish sur’ati 102,8 %, , Ellikqal’a tumani 156,5 mlrd. so‘m, o‘sish sur’ati 119,1 %, Beruniy tumani 134,9 mlrd. so‘m, o‘sish sur’ati 110,0 %, Mo‘ynoq tumani 120,4 mlrd. so‘m, o‘sish sur’ati 114,7 %, ni tashkil etdi.

# Qurilish ishlari
# 2024-yil yanvar-may oylari uchun

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | Shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik korxona va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 2 264,2 | 265,6 | 1 652,4 | 346,2 |
| Nukus sh. | 708,7 | 24,2 | 660,6 | 23,9 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Amudaryo | 124,6 | 7,4 | 75,3 | 41,9 |
| Beruniy | 134,9 | 4,7 | 113,3 | 16,9 |
| Bo‘zotov | 38,2 | 0,5 | 32,0 | 5,7 |
| Qorao‘zak | 33,6 | 3,3 | 25,6 | 4,7 |
| Kegeyli | 48,1 | 13,1 | 30,8 | 4,2 |
| Qo‘ng‘irot | 145,5 | 56,8 | 70,5 | 18,2 |
| Qonliko‘l | 33,5 | 2,3 | 11,1 | 20,1 |
| Mo‘ynoq | 120,4 | 73,6 | 38,5 | 8,3 |
| Nukus | 114,5 | 4,6 | 77,5 | 32,4 |
| Taxiatosh | 124,6 | 12,6 | 97,9 | 14,1 |
| Taxtako‘pir | 34,5 | 1,2 | 26,5 | 6,8 |
| To‘rtko‘l | 274,3 | 38,5 | 188,2 | 47,6 |
| Xo‘jayli | 78,3 | 0,1 | 55,5 | 22,7 |
| Chimboy | 77,0 | 3,6 | 19,1 | 54,3 |
| Shumanay | 17,0 | 1,8 | 4,1 | 11,1 |
| Ellikqal’a | 156,5 | 17,3 | 125,9 | 13,3 |

2024-yilning yanvar-may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 265,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 206,7 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 5,7 % punktga ko‘paydi va 11,7 % ni tashkil etdi.

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




*Ma'lumot uchun:* Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Mo'ynoq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 61,7 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 370,8 %), Qo'ng'irot tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 39,0 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 164,0 %), Kegeyli tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 27,2 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 608,7 %), va Ellikqal'a (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 11,0 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 888,0%) tumaniga to'g'ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-may oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 73,0 % i to‘g‘ri kelib, 2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 2,8 % punktga kamaygan. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 101,2 % ni tashkil etgan holda 1 652,4 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.



## Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da




***Ma’lumot uchun:*** *Joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko‘rsatkichi Nukus shahri (660,6 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 93,2 %), To‘rtko‘l tumani (188,2 mlrd. so‘m yoki 68,7 %) Beruniy tumani (113,3 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 84,0 %), ga to‘g‘ri keldi.*

# Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 15,3 % ni tashkil etdi yoki 346,2 mlrd.so‘m miqdorida qayd etildi. 2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 88,6 % ni tashkil etdi.




## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **78,6** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2 185,6** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **3,5 %** va **96,5 %** ni tashkil etdi.



# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2024-yil yanvar-may oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **68,0** % i yoki **1 539,8** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 171,2 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 11,1 % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 1041,4 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi 67,6 % ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 327,2 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 21,2 **%** ni tashkil etdi.




## Yillar bo‘yicha yangi qurilish hajmi va ulushi



# Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi bino va inshootlarni qurishga 1 533,5 mlrd. so‘m, ulushi 67,7 % ni, fuqarolik obyektlarini qurishga 612,7 mlrd. so‘m, ulushi 27,1 % ni, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga 118,0 mlrd. so‘m va ulushi ulushi 5,2 %ni tashkil etdi




*Ma’lumot uchun:* Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

# Bino va inshootlar qurilishi

*ulushi % da*




Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 8,7 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,2 % punktga ko‘paygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 % punktga ko‘payib, 68,7% ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 9,5 % punktga kamaydi va 22,6 % ni tashkil etdi.

# Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 20,2 % ni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 8,0 % punktga ko‘paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 79,8 % ni tashkil etdi.

***ulushi % da***



# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga ko‘paydi va 6,9 % ni tashkil etdi. Qolgan, 93,1 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi.





Qoraqalpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi

Aloqa telefoni: *(61) 222-75-91*